

- Bu sening bolangmi? - askar ko'rsatkich barmog'ini nuqib so'radi.

- Ha, - dedi dehqon.

- Bu esa - xotining? - so'radi nemis.

- Ha, - dedi dehqon.

Yoz edi.

- Men bolani yaxshi ko'radi, - dedi askar. Quyosh dalalardagi bug'doyni va o'rmonlardagi archalarni jizg'anak qilib yondirardi; u Pistoyya tog'larida ko'milib yotgan dehqon uylarini kuydirardi.

Qariyalar: "Bunaqa jazirama yozni biz umrimiz bino bo'lib ko'rmagan edik", - derdilar.

- Meniki uyda ko'p bolalar bor, - dedi askar. Uning qo'llarida yuk aravasining g'ildiraklaridan yechilgan charm kamera bor edi. U charmni jilvir qog'oz parchasi bilan qirtishlab tozalardi. Peshonasidan ter quyilardi. Juda jazirama yoz edi, 1944 yilning yozi.

- Xotin, bola bor, - dedi askar. So'ng tishlarini g'ichirlatib kuldi.

"Yo, tangrim, - o'yladi dehqon, - ular rostdan ham boshqa odamlarga sira o'xshamaydi, aslo". "Ular kulganda ham qanaqadir boshqacha kuladi", - o'yladi dehqon.

- Menga bolalar yoqadi, - dedi askar charmg'ildiragini g'ijimlarkan. U yerto'la tomonga kelib, arg'uvon daraxti tagiga o'tirdi. U bir chelak suv so'radi. Dehqon unga suv keltirdi, keyin uyining ostonasida g'oz turdi. Uning ortida - aravasining charmg'ildiragini jilvir qog'oz bilan tozalayotgan askarga qarab turgan bola ko'targan ayol.

Yoz edi. Jazirama yoz - avval hech qachon bo'lmagan jazirama yoz. 1944 yilning biz endi hech qachon unutilmaydigan yozi.

Dalalarda tuproq ham ichidan nimadir kuydirgandek qurigan va yorilib ketgan, daraxtlardagi poloponlar go'yo aqldan ozganday. Chigirtkalar tashnalikdan kunduzi ham chirillab kuyardi. Chunki saraton jazirama edi, qonga cho'milganday qizil edi.

- Men tezda Olmoniyada, - dedi askar. - Hammasi kaput, men ham Olmoniyada.

"Kaput", - o'yladi dehqon. Keyin xotiniga:

- Sen uyga kir, - dedi.

O'sha kunlarda Modenga olib boruvchi katta yo'ldan yuk mashinalari qator-qator o'tardi. Va ko'pincha bu yuk aravalaridan birortasi to'xtar, oq tusli nemislar kelib, tuxum, sut yoki boshqa biror-bir yegulik so'rashardi.

- Hech vaqo yo'q, - derdi dehqon. So'ng xotining qo'lidagi bolasiga ishora qilardi.

Nemislar tunukaning shaqirlashiday temir ovozlarda go'ldiragancha omboru saroylarni aylanishardi. Ular pulemyot tasmalari bilan o'rangan bu o'q shodalarini hayitga otlangan kelin marvarid shodalarini taqqandek farog'at bilan taqib yurishardi.

- Amerikaliklar Arnoda, - dedi nemis. Peshonasidan terni sidirdi: - Yaqinda hammasi tamom, kaput, - qo'shib qo'ydi u.

Endi u charmg'ildirakning yag'ir joyiga yelim surqardi, dehqon esa uyi ostonasini to'sgan qotib qarab turardi.

Quyosh o'z nurlari bilan bug'doyzor dalalarni shafqatsiz kuydirishda dovom etardi, 1944 yilning qizil yozidagi bug'doylar ham sariq emas, qip-qizil edi. O'rmonlarda qarag'aylarga o't ketar, tog' etaklarida sochilib yotgan qishloqlar ham alanga ichida kuyardi. Pastga, kenglikka qarab tog'lardan yelkasiga butun uyini ortmoqlagan erkaklar va ayollar tushib kelishardi. Tayoqning uchida lo'killab osilib kelayotgan qora tugunchaga tugilgan uy.

- Meniki Olmoniyaga qaytish, - dedi arg'uvon daraxti soyasida o'tirgan nemis. - Urushda hech yaxshi yo'q.

O'ylang: erkaklar va ayollar yelkalarida o'z uylari, o'zlari va o'z marhumlarining mol-mulklari tugilgan tayoqni tutamlagan cha tog'lardan ittifoqchilarning qo'shinlariga peshvoz tushishardi. Buning sababi aslo quyosh emasdi. Maxsus nemis to'dalarining olovotar qurollari edi. Hozir eshik kesakisiga suyanib charmg'ildiragini tuzatayotgan nemisga qarab turgan dehqon ham kun ketidan kun sanab, uning dalasiga ham bu otash tushishini, hosilini yamlab, uyini vayron qilishini kutardi.

"Chunki bu bir do'lga o'xshaydi, - qariyalar ko'zlarini yerga tikkancha shunday derdilar. Keyin qo'shib qo'yardilar: - Bu yilgiday yoz hech qachon bo'lgan emasdi".

Nemis boshini ko'tardi va dehqonga tikilgan cha sovuq jilmaydi. Keyin gapirdi:

- Charm kaput. Endi hech narsa kaput. Hammasi joyida, - dedi u. - Meniki ketmoq.

Dehqon unga qo'shilgandek bosh irg'adi.

- Lekin juda issiq, - dedi nemis. - Men kechqurun ketish. Tushunding? - so'radi u. - Juda yegim keladi, - jaranglatib kulgan cha qo'shib qo'ydi. U charmg'ildiragini maysaga, daraxt soyasiga tashladi. Qo'lini suv solingan chelakka tiqdi. Keyin mashinasi o'rindig'ining tagidan latta olib, qullarini artdi. Shoshmasdan dehqonga yaqinlashdi. Undan ter shovullab quyilardi. Ter kichkina oq tomchilar bo'lib peshonadan sirg'alar, yonoqlardan oqar, bo'yniga tomchilardi. U qo'li bilan peshonasini sidirdi.

- Issiq, - dedi u. - Meniki oqshomni, quyosh uxlashini kutmoq.

Do'stlar, biz 1944 yilning oqarguncha lovullagan yozini unutilmaymiz. Va yelkalarimizdagi tayoqlarda osilgan tugunchani unutilmaymiz. O'sha tugunchada uyimiz, to'shagimiz, qabristondagi go'rimiz tugilgan edi.

Yonayotgan qarag'aylar - bizning qarag'aylarimiz edi. Va bug'doy - bizning bug'doylarimiz edi. Daraxt shoxlarida bo'yni cho'zilib osilib yotganlar - bizning birodarlarimiz edi. Yodimizda tutaylik, do'stlar, qanchalarmimizning otalarimizni o'lirdilar. Bizlarni, tirik qolganlarni ham necha martalab o'lirdilar.

- Sening tuxuming bor, suting bor? - nemis dehqonning qarshisida to'xtab, so'radi. Dehqon boshini quyi solib, yalang oyoqlariga, eski, seryamoq shimiga boqdi.

- Menda hech vaqo yo'q, - javob berdi u.

- Hech vaqo? - so'radi nemis. Endi u kulmayotgan edi; uning yuzi tundlashdi va toshday qotdi.

- Italiyaliklar doim hech vaqo, - dedi u.

Dehqon qo'llarini yozgan cha tushuntirishga tutindi:

- Sigir yo'q, sening o'rtoqlaring kelib, olib ketishdi. Men o'rtoqlaringga aytdim, yosh bolamiz bor, dedim. Axir, sen uni ko'rding-ku? Men o'rtoqlaringga aytdim: sizlar sigirimni olib ketsanglar, bu begunoh go'dak ochlikdan tamom bo'ladi. Ammo ular: biz urushyapmiz, sening yeringni himoya qilyapmiz, shuning uchun sen bizni boqishing kerak, deyishdi. Mana, ular menga nima dedilar.

- Meniki hech narsa bilmaydi, - dedi nemis.

- Sen hech narsani bilmaysan, - dedi dehqon. - Ammo men nima demoqchiligimni yaxshi bilaman. Men aytmoqchimanki, menda hech narsa yo'q. Men aytmoqchimanki, mening faqat ko'zlarim qoldi - yig'lash uchun. Mana, bor-yo'g'i ana shu qoldi. Sut esa yo'q.

1 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Sut yo'q? - so'radi nemis. Undan avvalgiday ter quyilardi. Uning peshonasi, afti-angori, bo'yni - hammasi terga botgan. 1944 yilning yozida daryo bo'lib quyilgan terlar... Ado bo'layotgan dalalarga termulib turgan dehqonning tomog'i quridi. U shundoqina qarshisida turgan nemisning ko'k ko'zlaridagi sovuq nigohga to'qnashib qolmaslik uchun dalaga qarayotgan edi.

- Unda, demak, - dedi nemis, - senda tuxum bor?

Dehqon quyoshning ko'zni qamaC%otiradigan nurlari ostida gezarib yotgan keng va bo'm-bo'sh omborxonasi tomonga qo'llarini yozganча bosh chayqadi.

- Sening o'rtoqlaring, - u yana tushuntirishga tutindi, - sigirni olib ketgan o'rtoqlaring, tovuqlarni ham tortib olishdi. Yettita tovuq'imiz bor edi. Men leytenant bilan sigir borasida gaplashib turgan paytimda boshqalari og'ildagi hamma tovuqlarni oldilar. Men buni sezib qolgan zahoti leytenantning ortidan chopdim va unga: "Yo, xudoyim, endi men nima qilaman? Bolamni nima bilan boqaman?" - dedim. Ammo leytenant: "Meniki hech narsani tushunishni istamaydi", - dedi.

Qariyalar oyoqlarining tagiga boqqancha: "Mayli, ular shu bilan rohatlanaversinlar", - derdilar.

Yelimlangan charmg'ildirak omborxonaning narigi tomonidagi arg'uvon daraxtining tagida turardi. Endi yuk mashinasi ketaverishi ham mumkin edi. Ammo nemis dehqonning oldida turardi. Uning kamzuli rasamadidagiday qalin qayish bilan bog'langan edi.

Qayishdan esa dehqon avvallari ham ko'p ko'rgan uzun avtomatli to'poncha-yu uning teridan ishlangan g'ilofi osilib turardi, Dehqonning nazari ana shu to'pponchali g'ilofda to'xtadi.

- Non, - dedi dehqon, - men senga faqat non berishim mumkin. Chunki menda ozgiga un qolgan edi. - Keyin qo'shib qo'ydi: - Agar o'zimiz yanchmaganimizda, bu yil hech qanaqa yegulik bo'lmasdi, chunki mashinalarni jo'natishmadi. Senga non berishim mumkin.

- Non, - dedi nemis.

- Ha, - dedi dehqon. - Non. Yana vinobop mevalar va shaftoli. Bularni bera olishim mumkin.

- Men kirishni xohlayman, - dedi nemis, - bu yer juda issiq.

- Arg'uvon daraxtining soyasida, - dedi dehqon, - senga uydagidan salqinroq bo'ladi.

- Yo'q, - dedi nemis, uni itarib yuborarkan. - Men kirishni xohlayman.

O'sha 1944 yilning yozida qanchalar nemislar bizning uylarimizga yuvuqsiz oyoqlari bilan bostirib kirdilar?

Dehqon uning izidan kirdi, biz hammamiz shunday ularning izidan kirganmiz va ularning bizning xonadonimizda aylanib yurishlariga boqib turganmiz.

- Sen yuqoriga chiq, - dedi dehqon xotiniga. Ayol qo'lida go'dagini ko'tarib turardi, bolaning boshchasi osha kulib qo'ydi. Bu 1944 yil yozining kulgusi edi, shunchaki kulgu emasdi, haqiqiy kulgu emasdi.

- Nega? - so'radi ayol zinadan chiqishga chog'lanayotganini ko'rgan nemis. - Qo'rqyapsanmi? - so'radi u. Uni qolishga majbur qilish uchun qo'shib qo'ydi: - Menda bolalar bor, Olmoniyada. Xotin ham. Senda qo'rqish kerak yo'q.

Ayol, nima qilishni bilmasdan, erining nigohini izladi va turgan joyida, zinaning pillapoyasida, bolasini bag'riga bosganча turib qoldi.

Xonada stol turardi. Bir necha kursi ham. Nemis o'tirdi va cho'ntagidan ro'molchasini chiqardi. U yonoqlaridan oqayotgan terni artdi.

- Men non xohlayman, - u ayolni tinchlantirayotganday dedi. - Vinobop mevalarni ham. - Keyin so'radi: Necha yosh? - U bolani ko'rsatdi.

- Uch, - dedi ayol, zinadan tushmay. U yuqoriga ko'tarilishni ham, xonada qolishni ham bilmasdi.

Dehqon dehqon devorga suyanib turar, qo'li cho'ntagida solingan, nigohi to'g'riga qaratilgandi.

- Kichkina, - dedi nemis. - Sen-chi?

Ayol yana eriga qaradi.

- Sening yoshing necha? - so'radi nemis.

- Yigirma besh, - javob berdi ayol. So'ng eriga yalinchoq nazar soldi. U boshqa xonaga borishni ham, nemis buyurganiday shu yerda qolishni ham bilmasdi. Uning ko'zlarida yosh qalqayotgandi va u yuzlarini bolasining boshchasi ortiga yashirishga urinardi.

- Sen go'zal sinora, - dedi nemis, - senda qo'rqish kerak yo'q. Men shu yerda o'tiraman, chunki mashina bilan issiq. Men oqshomni kutmoq, - dedi u. - Hozir nafas olish qiyin.

O'sha 1944 yilning yozida nafas olish qiyin edi. Biz jaziramadan va olovotar qurollar ko'targan nemis askarlaridan bo'g'ilib yotardik. Daraxtlar mash'alalardek lovullardi. Bizning qarag'aylarimiz. Ayollar va erkaklar qo'yilday tentirab vohaga tushib kelardilar. Ammo ular qo'yilar emasdilar, ular odamlar edilar, tayoqqa tugilgan uylarini ormoqlagan odamlar.

Nemis papiros tutatdi.

- Mening ham, - dedi u, - xotin bor. Juda go'zal meniki sinora. Ammo sen go'zaroqsan, - dedi u.

Ayol ko'z yoshlarini yashirish uchun yuzini bolasining boshi orqasiga yashirdi. Yuragi qo'rquvdan qattiq tepa boshladi. Tomog'iga nimadir tiqildi.

- Non qani? - dedi nemis, dehqonga murojaat qilib.

Dehqon, go'yo nogohon sarosimadan chiqqanday, sekin javonga tomon yurdi, eshikchani ochib, bitta butun non chiqardi. Pichoqni oldi. Non va pichoqni nemisning oldiga qo'ydi.

Keyin avvalgi joyiga va yana devorga suyandi, qo'llari cho'ntakka kirdi; bo'm-bo'sh ko'zlarini yana to'g'riga tikdi. Uning xotini ham avvalgiday zinapoyada turar, ko'z yoshlarini bolasining boshchasiga ishqalab artishga urinardi.

Nemis bizning nonimizdan bir parcha kesib oldi.

- Sen aytiding - vinobop mevalar, - dedi u. - Men vinobop meva xohlaydi.

- U yoqda, - dedi dehqon eshik ortini ko'rsatib.

- Sen mevalaringni keltir, - dedi nemis.

Ammo dehqon devorga suyanganча, qilt etmay turardi. Shunda ayol zinapoyadan tushib vinobop mevalardan uzish uchun poliz tomonga yo'naldi.

- Men olib kelaman, - dedi u.

Nemis kursidan turib, uni to'xtatdi.

- U boradi, - dedi nemis erini ko'rsatib.

Dehqon eshikka yo'naldi, ochiq eshikdan hovlidagi lovullagan yozga, arg'uvon daraxti tagida turgan charmg'ildirakka nazar soldi, keyin o'girildi va xotiniga qaradi. U ularning bolasining boshlari ortidan unga qarab turardi. Quyosh jizg'anak qilayotgan oqish

This is not registered version of TotalDacConverter
polizga borayotganini ko'rdi. Uning yalag'ichligiga tiqilardi.

- Issiq, - dedi nemis ayolga. U ohista yurib borib, eshikni bekitti.

- Seniki qanaqa ism? - so'radi u ayoldan.

Ayol tushunmadi. U faqat kimningdir qo'li uning siynasi va bolasi o'rtasiga suqilayotganini sezdi.

- Och! - dehqon eshik orqasidan baqirdi. - Och, nemis. Bu yerdan tirik ketmaysan.

Ayol nemis avtomat to'ponchasini chiqarganini, peshonasini artayotganini ko'rdi. Otishga tayyor to'poncha bilan eshikka qarab borganini ham ko'rdi. Ayol ko'zlarini yumdi.

1944 yilning yozi edi. Bu voqea o'sha yozda bo'lgan edi. O'sha dehqon men edim, u sen eding, qo'llarimizda pichanxonadan, pichan tagiga berkitib qo'yilgan joyidan olingan miltiqlarni mahkam siqib turardik. Biz hech qachon unutilmaydigan yoz lovullab turardi. Biz uni hech qachon unutmaymiz. O'shanda, o'sha yozda biz otishni o'rgangan edik.